

## **AYOLLARDA KLIMAKTERIK DAVRDA RIVOJLANGAN “QURUQ KO’Z” SINDROMINING DAVOLASH SAMARADORLIGINI KLINIK BAXOLASH.**

*Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali “ Otorinolaringologiya va oftalmologiya ” kafedrası assistenti*

*Jumaniyozova Nilufar Sharipbayevna*

*Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali talabasi*

*Axmedov Shuhrat Ne'matjon o'g'li*

**Kalit so'zlar:** Quruq ko'z sindromi, menopauza davri, klimakterik davr.

**Mavzuning dolzarbligi.** Klimakterik davrda, ayollar organizmida gormonal muvozanatning buzilishi, tufayli tizimli o'zgarishlar yuzaga keladi. Hozirgi vaqtda ayollarda klimakterik holatdagi o'zgarishlarni tashxislash, oldini olish va davolash tibbiyotning ko'plagan yo'nalishlari uchun muammo hisoblanadi. Xususan oftalmologiya amaliyotida 50 yoshdan katta, klimakterik davridagi ayollarda “Quruq ko'z” sindromi 67% holatlarda aniqlangan.

**Tekshirish maqsadi:** Ayollarda menopauza davrida rivojlangan “Quruq ko'z” sindromining kompleks davolash samaradorligini, klinik baxolash.

**Materiallar va tadqiqot usullari:** Ilmiy izlanishlarimiz uchun tadqiqot materiallarini, Urganch shaxar “MedOptic” xususiy klinikasida 30 nafar menopauza davridagi 50 yoshdan 65 yoshgacha bo'lgan bemor ayollarni yig'dik. Qo'yilgan maqsadimizga muvofiq bemorlar 2 ta guruhga ajratildi: asosiy va nazorat guruhlariga bemorlar 15 nafardan kiritildi. 1-guruh(nazorat) 15 nafar KDda rivojlangan QKS bilan kasallangan ayollarga kompleks davolashda Okutiarz namlantiruvchi ko'z tomchilari 1tomchidan 3 maxal berildi. 2-guruh(asosiy) 15 nafar KDda rivojlangan QKS bilan kasallangan ayollarga Okutiarz ko'z tomchilari 1tomchidan 3 maxal buyurildi va magnitostimulyatsiya (AMO-ATOC oftalmologik fizioleniya apparati) 2Gs 5minut davomida tavsiya qilindi. QKSni tashxislash, sub'ektiv belgilarga va maxsus tekshirish usullariga asoslanib qo'yildi. Subektiv belgilardan ko'zlarning qizarishi, achishishi, qichishishi, yot jism sezgisi, ko'zlarining qurishi kuzatildi.

**Natijalar.** Ayollarda menopauza davrida rivojlangan “Quruq ko'z” sindromini bilan kasallangan ikki guruh bemorlarni kompleks davolashdan keyin, sub'ektiv shikoyatlarni va klinik belgilarining kamayishiga asoslanib 15 kun davomida dinamikada kuzatdik. Bemorlarning shikoyatlari 1-haftasidan nazorat guruhida 60% ga va asosiy guruhda 75%ga kamaydi. Bu dinamik kuzatishimizning 2-haftasidan keyingi natijasi, 1-guruhdagi bemorlarda 82%, 2-guruhdagi bemorlarda 95%ni tashkil qildi, yani asosiy guruhda shikoyatlari kamaygan bemor ko'zlarining soni, nisbatan

ko'pchilikni tashkil qildi. Ushbu monitoringga ko'ra, biz asosiy guruhda nazorat guruhga nisbatan ko'proq ijobiy natijalarni oldik.

**Xulosa.** O'tkazilgan tekshiruv natijalariga ko'ra, ayollarda menopauza davrida rivojlangan "Quruq ko'z" sindromini kompleks davolashda Okutiarz ko'z tomchilari bilan birgalikda, magnitostimulyatsiya fiziotecheniyasi tavsiya qilinadi.

Jumaniyozova Nilufar Sharipbayevna nilufarjumaniyozova@mail.ru <tel:974032090>

Axmedov Shuhrat Ne'matjon o'g'li tel:900900409